



**VIRTUAL CHAINS OF THE PAST: THE PERMANENCE OF
INFORMATION ON THE INTERNET AND THE
CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE RIGHT TO BE
FORGOTTEN**

Saparbayeva Maftuna Ikrom qizi

Master's Student, Tashkent State University of Law

e-mail: maftunasaparbayeva68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577494>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2025

Accepted: 10th November 2025

Online: 11th November 2025

KEYWORDS

Internet, data permanence, right to be forgotten, respect for private life, constitutional rights, search engine, digital archive, international court practice, personal data protection.

ABSTRACT

This article examines the permanence of personal data on the Internet and in digital archives and the concept of the "right to be forgotten" from a constitutional perspective. The study addresses issues of personal data control, respect for private life, and freedom of the press through examples from European, German, Turkish, and international court practice. Additionally, using scholarly research and expert opinions, the technical and legal aspects of implementing the right to be forgotten in the digital era are analyzed. The necessity of legislative regulation of this right and the creation of practical mechanisms in the context of Uzbekistan is also emphasized.

**ВИРТУАЛЬНЫЕ ОКОВЫ ПРОШЛОГО: ПОСТОЯНСТВО
ИНФОРМАЦИИ В ИНТЕРНЕТЕ И КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ
ПРАВА НА ЗАБВЕНИЕ**

Сапарбаева Мафтун Икрам кызы

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

e-mail: maftunasaparbayeva68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577494>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2025

Accepted: 10th November 2025

Online: 11th November 2025

KEYWORDS

Интернет, вечность хранения данных, право на забвение, уважение частной жизни, конституционные права, поисковая система, цифровой архив, практика международных судов, защита личных данных.

ABSTRACT

Данная статья анализирует вечность хранения личных данных в интернете и цифровых архивах и концепцию права на забвение с конституционных позиций. В статье рассматриваются вопросы контроля за личными данными, уважения частной жизни и свободы прессы на примере практики Европейского союза, Германии, Турции и международных судов. Также с помощью научных исследований и мнений ученых анализируются технические и юридические аспекты реализации права на забвение в



цифровую эпоху. Подчеркивается необходимость законодательного закрепления этого права и создания практических механизмов в условиях Узбекистана.

**O'TMISHNING VIRTUAL KISHANLARI: INTERNETDA
MA'LUMOTLARNING ABADIYLIGI VA UNUTILISH HUQUQINING
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

Saparbayeva Maftuna Ikrom qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: maftunasaparbayeva68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577494>

ARTICLE INFO

Received: 06th November 2025

Accepted: 10th November 2025

Online: 11th November 2025

KEYWORDS

Internet, ma'lumot abadiyligi, unutilish huquqi, shaxsiy hayotga hurmat, konstitutsiyaviy huquqlar, qidiruv tizimi, raqamli arxiv, xalqaro sud amaliyoti, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

ABSTRACT

Ushbu maqola internet va raqamli arxivlarda shaxsiy ma'lumotlarning abadiyligi (uzoq muddat saqlanishi) va shaxsning "unutilish huquqi" konseptini konstitutsiyaviy asoslarda tahlil qiladi. Maqolada Yevropa, Germaniya, Turkiya va xalqaro sud amaliyoti misollarida shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazorat, shaxsiy hayotga hurmat va matbuot erkinligi o'rtasidagi muvozanat muammosi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, olimlar fikrlari va ilmiy tadqiqotlar yordamida raqamli davrda unutilish huquqini amalga oshirishning texnik va huquqiy jihatlarini tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida ushbu huquqni qonuniy tartibga solish va amaliy mexanizmlar yaratish zaruriyati ham qayd etilgan.

Kirish: Zamonaviy raqamli asrda internet va global axborot tarmoqlari inson hayotida o'chmas iz qoldirmoqda. Internetda e'lon qilingan ma'lumotlar uzoq vaqt yoki abadiy qolishi mumkin, bu esa shaxsning kelajakdagi imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli, shaxsning ma'lumotlarni nazorat qilish, kerak bo'lsa ularni onlayn maydondan olib tashlash yoki qidiruv natijalaridan ajratish huquqi — "unutilish huquqi" — dolzarb masala sifatida paydo bo'lgan. Maqolada ma'lumotlarning abadiyligi bilan bog'liq muammolar, unutilish huquqi kontseptsiyasi va uning konstitutsiyaviy asoslari, shuningdek xalqaro sud amaliyoti va olimlar fikrlari asosida tahlil qilinadi.

Olimlar bu masalani turlicha talqin qiladilar. Roskhaniuk va boshqa (2020) ma'lumotlarni abadiy saqlash shaxsning ijtimoiy va siyosiy hayotida uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Garg va boshqa (2020) o'z tadqiqotlarida ma'lumotlarni o'chirishning texnik jihatlarini tahlil qilgan, shaxsning "o'tmishini unutish" huquqi texnologik qiyinchiliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. German Law Journal (2019) esa "general right of personality"¹ konseptini sharhlab, shaxsning o'z ma'lumotlari

¹ German Law Journal. "Right to be Forgotten I | 1 BvR 16/13".



ustidan nazorat qilish huquqi va u bilan bog'liq matbuot erkinligi o'rtasida muvozanat zarurligini ta'kidlaydi.

Unutilish huquqi amaliy jihatdan bir nechta xalqaro sud ishlarida o'z ifodasini topgan. Eng mashhur misol — CJEU ning Google Spain SL, Google Inc. v. AEPD (2014) ishi, unda sud shaxsga o'z nomi bilan bog'liq ma'lumotlarni qidiruv tizimida topilmasligi uchun so'rov qilish huquqini tan olgan. Sud qarorida shuni belgiladiki, huquq mutlaq emas, u jamoat manfaatlari va so'z erkinligi bilan muvozanatli bo'lishi lozim. German Federal Constitutional Court qarorlarida esa shaxsning abadiy iz qoldiradigan ma'lumotlar bilan bog'liq huquqlari matbuot erkinligi va tarixiy arxiv materiallariga ta'sirini muvozanatlash masalasi tahlil qilingan. Shu bilan birga, Turkiya Konstitutsiyaviy sudida qabul qilingan qarorlar shuni ko'rsatadiki, eskirgan yangiliklar jamoat manfaatidan endi aktiv bo'lmaganda, shaxsning hurmati ustuvor bo'lishi mumkin.

O'tmishning virtual kishanlari — shaxsiy ma'lumotlarning abadiyligi bilan bog'liq holatlar — shaxsning hayotiy faoliyati va erkinliklariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Shaxs onlayn maydonda e'lon qilingan ma'lumotni o'chirib yuborolmasligi yoki qidiruv natijalaridan ajrata olmasligi uning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashi mumkin. Shu sababli, unutilish huquqi o'zaro muvozanatli tizimda amalga oshirilishi zarur: u shaxsiy hayotga hurmatni ta'minlashi, lekin matbuot erkinligi, tarixiy arxivlar va jamoat manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Yevropadagi olimlar va huquqshunoslar masalani turlicha talqin qiladilar. Bygrave shuni ta'kidlaydiki, "unutilish huquqi texnologik kontekstda shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratni mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi, lekin u erkin axborot oqimini cheklashga olib kelmasligi kerak." Torun esa "raqamli davrda shaxsiy hayotga hurmat va abadiy axborotning uyg'unligi konstitutsiyaviy balansning markazida turadi" deb yozadi. Erdem va Erdem ²o'z tadqiqotlarida, shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazorat huquqi va so'z erkinligi o'rtasidagi muvozanatni yaratish jarayonidagi amaliy qiyinchiliklarni ko'rsatadi.

Texnik jihatdan, ma'lumotni butunlay o'chirish qiyin, chunki u tarqalgan va nusxalari bo'lishi mumkin. Shu sababli, qidiruv tizimlari orqali topilmasligini ta'minlash ko'proq qo'llaniladi. Garg va boshqa tadqiqotlarida ma'lumotlarni o'chirish jarayonlarini formalizatsiya qilish va "right to be forgotten"ni texnik jihatdan amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, ilmiy tahlillarda "ma'lumotning eskirganligi", "shaxsning jamoat hayotidagi roli", "jamoat manfaatlari" kabi mezonlar huquqiy amaliyotda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida hozirda alohida "unutilish huquqi" tushunchasi qonun bilan tartibga solinmagan. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun va Konstitutsiyadagi shaxsiy hayotga hurmat prinsiplarini asos qilib, ushbu huquqni amaliyotga joriy etish mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taaluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi. Xitoylik M.Park va C.Chai kabi olimlarning yozishicha shaxsga doir ma'lumotlarga ismlar, manzillar, turmush

² Erdem & Erdem. "The Right to Be Forgotten".



tarzi kabi ma'lum bir shaxsning shaxsini tushuntirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar kiradi. R.Beskvith va C.Mainvaringlarning ta'kidlashicha, ism, manzil, telefon raqami, onasining qizlik ismi, jinsi, kasallik tarixi, sug'urta ma'lumotlari kabilar shaxsga doir ma'lumotlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli arxivlar va media arxivlari operatorlari uchun ma'lumotning eskirganligi, shaxsning jamoat hayotidagi roli kabi mezonlarni ko'zlaydigan protseduralar ishlab chiqilishi zarur. Qidiruv tizimlari operatorlari bilan hamkorlikda "shaxs so'rov qilsa, qidiruv natijalaridan ma'lumotni ajratish" mexanizmlari joriy etilishi shaxsning raqamli izlari ustidan nazoratni kuchaytiradi va o'tgan voqealarning "virtual kishanlarini" yumshatadi.

Yevropa Ittifoqining asosiy qonun hujjatlaridan biri – Yevropa Ittifoqining Inson Huquqlari bo'yicha Nizomining 8-moddasi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish haqida bir qancha norma belgilangan bo'lib bular quyidagilardan iborat: Har bir shaxs shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, bunday ma'lumotlardan belgilangan maqsadlarda va uning roziligi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar asosida maqsadga muvofiq foydalanishi kerak. Har bir inson o'zi to'g'risidagi to'plangan ma'lumotlarga kirish va undagi xatolarni tuzatish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan. 1995-yilda "Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va bunday ma'lumotlarning erkin harakatlanishi bo'yicha shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi direktivasi (95/46EC direktivasi) ³qabul qilindi, bu bugungi kunda Yevropa Ittifoqining asosiy hujjati hisoblanadi. Unda shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq boshqa harakatlar nazarda tutilgan. Ushbu hujjatning 12-bandi jismoniy shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va uni internetdagi uchinchi shaxslardan himoya qilinishini kafolatlaydi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda "right to be forgotten"ni xalqaro kontekstda ham tahlil qilish muhim hisoblanadi. Roskhaniuk va boshq. (2020) shuni ko'rsatadiki, Lotin amerikasi mamlakatlarida "habeas data" instituti shaxsga o'z ma'lumotlarini ko'rish, to'g'rilash yoki o'chirish huquqini beradi. Bu esa internet va raqamli arxivlar davrida shaxsiy huquqlarni himoya qilishning global tendensiyasini aks ettiradi. Bygrave (2017) esa "digital era challenges the classical notions of privacy and personal autonomy" deb yozadi, ya'ni raqamli asr shaxsiy hayot va erkinlik kontseptsiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, internet va raqamli arxivlar shaxsiy ma'lumotlarning uzoq muddat saqlanishi (ma'lumot abadiyligi) muammosini yuzaga qo'ydi. Unutilish huquqi shaxsning ma'lumot ustidan nazoratini tiklashga qaratilgan huquqiy konsept bo'lib, konstitutsiyaviy huquqlar — shaxsiy hayotga hurmat, shaxsiy ma'lumotlar ustidan huquq va axborot erkinligi bilan bevosita bog'liq. Yevropa va Turkiya misollarida sud amaliyoti bu huquqning real hayotga tatbiq etilishini ko'rsatdi. O'zbekistonda ham ushbu huquqni qonuniy darajada tartibga solish va amaliy mexanizmlar yaratish zarur. Raqamli asrda "o'tganimni unutish" degan istak shaxs huquqlari majmuasi bosimiga duch kelmasligi uchun muhim bosqich hisoblanadi.

³ Директивы 95/46/ЕС Европейского Парламента eur-lex.europa.eu



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan)
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi O'RQ-547-son Qonuni
3. Torun Y. "Right to be forgotten".
4. Erdem & Erdem. "The Right to Be Forgotten".
5. Ifade Report. "The Right Not To Be Forgotten" (2021).
6. Roskhaniuk V., Byelov D., Bielova M. "Human right to be forgiven". Visegrad Journal on Human Rights.
7. Garg S., Goldwasser S., Vasudevan P. "Formalizing Data Deletion in the Context of the Right to be Forgotten".
8. Bygrave L. "Data Privacy Law: Approaches and Challenges in the Digital Era".
9. Callewaert J. "Landmark judgments of the German Constitutional Court ('Right to be forgotten' I and II)".2017.
10. German Law Journal. "Right to be Forgotten I | 1 BvR 16/13".